

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

AVGUST, 2025-YIL





O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-259-6

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Фозилжонов Хожиақбар

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ
СВТ..... 7-11

Mamadaliyeva Gulhayo

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI
UNING ISH KO'RSATGICHLARIGA TA'SIRI 12-16

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV..... 17-19

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI
QIYOSIY FARQLAR..... 20-23

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI 24-25

Xasanova Nargiza

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA 26-29

Rustamova Nigora

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI 30-32

Xalilov Baxodir

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"
TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) 33-37

Норов Шухрат

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) 38-41

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) 42-43

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH
METODIKASI 44-47

Abduraimova Nigora

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI 48-51

Sidiqov Jasurbek

IJTIMOY INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR..... 52-56

Nematova Dilnoza

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 57-63

Axmedova O'g'ilshod

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI 64-66

<i>Abduraimova Nigora</i> TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR	67-70
<i>Tuychiyev Anvarjon</i> MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	71-75
<i>Asqarov Abrorjon</i> TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI	76-85
<i>Yusufjonov Ravshanbek</i> INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	86-88
FALSAFA FANLARI	
<i>Gafurova Munajat</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....	89-92
<i>Abdullayev Sodiqjon</i> ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI	93-98
FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yusufova Farangiz</i> HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....	99-102
<i>Xoliyorova To'lg'anoy</i> O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	103-104
<i>Ro'ziyev Temur</i> IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI	105-112
<i>Eshchanova Mavjuda</i> CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....	113-115
<i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuza</i> ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida).....	116-119
<i>Bahromjonova Shahnoza</i> "MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI	120-122
<i>Maxmudova Marjona</i> "DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....	123-124
<i>Gulmuradova Sobira</i> TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIK MIZMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....	125-127
<i>Qurbonova Aziza</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARNING AHAMIYATI	128-129
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....	130-136

<i>Qosimova Malika</i> LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH METODLARI	137-140
<i>Ayimbetova Damekhan</i> ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA OBRAZLAR TIZIMI	141-145
<i>Yo'ldasheva Mahliyo</i> "MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	146-149
<i>YURIDIK FANLARI</i>	
<i>G'ofurov Ramzbek</i> DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI	150-154
<i>Turdibaeva Mukhaddas</i> JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES.....	155-160
<i>Gafurova Shoir</i> ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI.....	161-165
<i>Komilov Avazbek</i> PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RSIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR	166-169
<i>Babajanov Farrux</i> IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS ETTIRISH	170-175
<i>PEDAGOGIKA FANLARI</i>	
<i>Hurillaeva Uzulxon</i> ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ.....	176-181
<i>Tursinova Zoxida</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI	182-191
<i>Babayeva Shahnoza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI	192-194
<i>Rasulova Barnoxon</i> KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV INNOVATSION BAHOLASH USULLARI	195-199
<i>Zokirjonov Akramjon</i> O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI.....	200-202
<i>Baratova Yulduz</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI.....	203-206

Sattoriy Shohruh

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI 207-210

TIBBIYOT FANLARI

Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza

AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN..... 211-213

Мамадалиев Хасанхон

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)

И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ..... 214-218

Махмудбеков Бобурмирзо

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA

OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH..... 219-221

PSIXOLOGIYA FANLARI

Усманова Лилия

ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ

ТРАДИЦИИ 222-225

SIYOSIY FANLAR

Sa'diyev Bahodir

ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI..... 226-231

IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI

Ro'ziyev Temur

Erkin tadqiqotchi

Tel: +998 91 147 37 91

Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur tezisda adabiy ijodda muallif shaxsiyati va uning estetik pozitsiyasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tahlil etiladi. Ijodkorning dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarini uning badiiy asarlarida qanday shakllanishi, estetik ideal bilan qanday uyg'unlashgani tadqiq qilinadi. Estetik pozitsiya — bu ijodkorning go'zallik, haqiqat, ezgulik kabi badiiy mezonlarga bo'lgan munosabati bo'lib, u asarlar orqali namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, shaxs va estetik qarashlar uyg'unligi san'atning mazmuniy va badiiy kuchini belgilaydi. Tezisda turli davr adiblarining ijodiy faoliyati misolida ushbu mutanosiblikning o'ziga xos jihatlari yoritiladi. Ishda adabiyotshunoslik nazariyasi va tahlil uslublaridan foydalanilgan bo'lib, mavzu yosh ijodkorlar va adabiyotshunoslar uchun nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ijodkor shaxsiyati, estetik pozitsiya, badiiy obraz, dunyoqarash, ijod va tafakkur, go'zallik ideali, axloqiy mezon, adabiy qarashlar, shaxs va san'at, estetik uyg'unlik.

THE CORRELATION BETWEEN THE CREATIVE PERSONALITY AND AESTHETIC POSITION

Ruziyev Temur

Independent researcher

Annotation. This thesis explores the intrinsic connection between the personality of the author and their aesthetic position in literary creation. It analyzes how the writer's worldview, life experience, and socio-moral values are reflected and harmonized through their artistic works. The aesthetic position refers to the author's attitude toward concepts such as beauty, truth, and goodness, and how these are manifested in their literary output. From this perspective, the harmony between personality and aesthetic vision determines the depth and artistic power of a work. The study highlights this proportionality through the creative activity of writers from various periods. Employing literary theory and analytical methods, the research holds theoretical and practical value for young writers and literary scholars.

Key words: Author's personality, aesthetic position, artistic image, worldview, creativity and thinking, ideal of beauty, moral values, literary views, personality and art, aesthetic harmony.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-24>

Insonni olam va odamni anglab etishga intilish hissi uni ijod qilishga da'vat qiluvchi asosiy omil sifatida falsafa va estetika ilmi qatorida adabiyotshunoslikda ham e'tirof etiladi.

Darhaqiqat, olam va odamni anglab etishga intilish uni tushunish va tushuntirish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Aynan shu his-tuyg'u, munosabatlarning qanday talqin etilishiga ko'ra ijod namunalari muayyan nom bilan ataladi. Shunga ko'ra ularni falsafiy, ilmiy yoki badiiy asar sifatida nisbat beriladi. Insoniyat adabiy-estetik tafakkuri tajribasidan ma'lum bo'ladiki, falsafiy, ilmiy xususan badiiy ijod mahsulining ta'sir doirasi, ijtimoiy va estetik nuqtai nazardan foydalanilganligi his-tuyg'uning jumbushga keltirishdagi funksiyasining asosi aynan estetik pozitsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Estetika ([nemischa](#) *Ästhetik*, [boshqa yunoncha](#) *αἰσθησι* - "hissiyot, hissiy idrok") - [sanoatdagi](#), tabiatdagi va hayotdagi go'zallikning mohiyati va shakllari haqidagi falsafiy ta'limot, san'at ijtimoiy ongning alohida shakli sifatida.

[A.F.Losevning](#) fikricha, estetika predmeti voqelikning qaysi sohasiga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, ekspressiv shakldir. Estetika mavzusini bunday tushunishda Losev italiyalik intellektual Benedetto Crocega ergashdi. Losevning ta'kidlashicha, jamoat hayotining deyarli har bir sohasi har qanday ijtimoiy-tarixiy o'ziga xoslikning o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtiradigan va jamlaydigan estetik manbai bo'lishi mumkin[1;10-b]

[V.V.Bichkovning](#) fikriga ko'ra, estetika ([qadimgi yunoncha](#) αἰσθάνομαι - "his qilish"; αἰσθῆτικὸς - "hislar bilan idrok etish") - bu utilitar bo'lmagan tafakkur yoki shaxsning rivojlanishining o'ziga xos ijodiy munosabatini o'rganadigan fandir., jarayonda va natijada inson ruhiy-hissiy eyforiya, zavq, ta'riflab bo'lmaydigan quvonch, baxt, katarsis, ekstaz holatlarini his qiladi, his qiladi, boshdan kechiradi. Ularning koinotda uning maonaviy va moddiy asoslarining birligidagi organik ishtirokidan maonaviy zavqlanish, ularning u bilan va ko'pincha uning maonaviy Birinchi sababi bilan ajralmasligi, imonlilar uchun Xudo bilan. "Estetika" atamasi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda va kundalik hayotda va boshqa maonoda - madaniyatning estetik tarkibiy qismiga va uning estetik tarkibiy qismlariga nisbatan qo'llaniladi. Shu maonoda ular xulq-atvor, faoliyat, sport, marosim, marosim, har qanday oboekt va boshqalar estetikasi haqida gapiradi. Estetikaning asosiy kategoriyalari: go'zal, xunuk, uluvor, tayanch, fojiali, hajviy, uluvor, dahshatli.

"Estetika" so'zi yunoncha αἰσθῆτικὸς (sezuvchanlik, oqilona tuyg'u, hissiy idrok bilan boliq narsa) dan kelib chiqqan bo'lib, u o'z navbatida αἰσθῆσις ("men his qilaman, his qilaman, his qilaman" degan ma'noni anglatadi) dan keladi. "Estetika" atamasi nemis faylasufi Aleksandr Baumgarten tomonidan 1735 yilda "Mediationes philosophicae de nonnullis ad poema pertinentibus" dissertatsiyasida kiritilgan va hozirgi ma'nosiga ega bo'lgan [5]. Biroq, uning keyingi ta'rif "Estetika" (1750) zamonaviy estetikaga tegishli bo'lgan birinchi ta'rif hisoblanadi

O'tmishda estetik qarashlar, g'oyalar, fikr-mulohazalar, ta'limot va nazariyalar falsafa fani bag'rida paydo bo'ladi. Ayni paytda falsafiy ta'limotlardagi hilma-hil yo'nalishlar estetik qarashlarning ham turli ko'rinish va yo'nalishlariga kuchli tasir o'tkazib keldi. Nafosat mohiyati, estetik ong va estetik faoliyat tabiati, sanatining voqelikka munosabati masalalarida turli qarashlar paydo bo'ladi.

Estetik g'oyalar dastavval qadimgi Sharq o'lkalarida, jumladan, Misr, Mesopatamiya, Bobil, Hindiston, Xitoy, Eron va Turon mamlakatlarida vujudga keladi. Yaqin-yaqinlargacha "estetik g'oyalar vatani qadimgi Yunonistondir" degan so'zlarga ishonar edik. qadimgi sharq estetikasining tarixiy merosi ataylab ko'zdan pinhon tutilgani, hatto kam o'rganilganligi sababli "ovrupoxudbinlik" ("evropotsentrizm") uydirma aqidalari zo'r berib ilgari surildi.

Qadimgi Sharq mamlakatlarining xalqlari bizga meros qilib qoldirgan yozuvlari (Mixxat, finikiya alifbosi), O'rxun - Enasoy bitiklari, Xarazm alifbosi, qimmatbaho ma'danlardan ishlangan sanat asarlari (Misrda firavn Tutanxamon maqbarasidan topilgan asori atiqalar, Amudaryo xazinasi, Doro I tasviri solingan oltin tangalar, skiflar oltin buyumlari va boshqalar), ulug'vor me'morchilik obidalari (Bobil minorasi, qadimgi Xorazm badiiy madaniyati qoldiqlari, Hindiston va Xitoy hukmdorlari saroylari, iboatxona devorlaridagi tasviriy sanat haykaltaroshlik asarlari) bu mamlakatlarda badiiy madaniyat yuksak taraqqiy etganini ko'rsatadi. Ilk estetik qarash va g'oyalar koinotdan bayon qilinganligini

bugun biz bu mamlakatlar xalqlari qo'lyozma merosidan, og'zaki xalq ijodidan bilamiz. Afsuski, mazkur boy estetik meroc hozirgacha deyarli o'rganilmagan va ilmiy sharhlanmagan.

Qadimgi yunon estetik ta'limotining ibtidosi mashhur matematik olim va faylasuf Pifagor (e. a. 6-5asrlar) nomi va uyaratgan maktab bilan bog'liq. Pifagor va uning shogirdlari barcha narsalarining mohiyatini raqamlar va ularning o'zaro munosabatlari tashkil etadi, koinot yaxlitligida ham raqam aqidasi yotadi, deb uqtirdilar. Ular mazkur qarashlarini nafosat olamiga ham tadbiiq etib, estetik tafakkurni boyitishga o'z hissalarini qo'shdilar. Pifagorchilarning nafosat asoslari, musiqaviy hamohanglik asoslari, yani "xilma -xil ovoqli tomonlarning kelishuvi" umumbashariy hamohanglik (garmoniya) ekanligi haqidagi qarashlar va g'oyalar estetik tafakkur tarixida muhim o'rin tutadi.

Shaxs fenomeni badiiy ijodni yuzaga keltiruvchi o'zak sifatidagi tushuncha bo'lib, uni ijtimoiy fanlarning har biri o'z tabiatiga ko'ra tushuntiradi. Masalan falsafada "Shaxs - alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi... Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o'zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o'rganish maqsadida qator tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, Sharqda u yuksak axloqiy-ma'naviy me'yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go'zal va farovon bo'lishiga ehtiyoj sezadi"[2:299-b] Ma'lumki, bu masala Sharq va G'arb mutafakkirlari uchun doimo qiziqarli bo'lib kelgan. Ular tomonidan shaxs jamiyatni yo'naltiruvchi kuch sifatida xulosa qilingan. Sharq tasavvuf falsafasidagi komil inson tushunchasi e'tirof etilgan shaxs tushunchasiga mos keladi. Chunki Sharqda shaxsning ijtimoiy-siyosiy mezonlari bilangina mukammalligi komillikni to'la ifodalovchi belgi hisoblanmagan. Shuning uchun ham Ahmad Yassaviy, Xorazmiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, So'fi Olloyor, Mashrab, Boburlar asarlarida shu mazmunning badiiy talqini uchraydi. Bu masala G'arb falsafasida o'zgacharoq bo'lib, unga ko'ra shaxs shakllanishi va kamolotida ijtimoiy muhit bosh omil sifatida qaralgan.

Bu xususda yunon faylasufi Demokritga ko'ra: "Haqiqiy va ko'p qirrali donolik haqiqiy baxtga eltadi. Donolik uchta hosil keltiradi. Ular yaxshi fikrlash, yaxshi so'zlash, yaxshi harakat qilishdir. Birinchisi ruhiy tetiklikni ta'minlaydi. Yaxshi fikrlash, demak narsalar haqida to'g'ri hukm chiqarishdir. Ikkinchisi samimiylik, haqqoniylikdan iborat "So'z ishning g'oyasidir". Uchinchi donishmandlik bo'lib, u amaliy ezgulikni hosil qiladi"[3;40-b] Platon esa "Oliy fazilat oqillik, jonning oqil qismi namoyon bo'lishidir. Bu donishmand-faylasuflarga xos fazilatdir. Ular davlatning birdan-bir haqiqiy hukmronlaridir"[3;66-b]. Manbalarda Platon "faylasuf" atamasi orqali ijodkorlik qobiliyatiga ega shaxslarni nazarda tutganligi bildirilgan. Jamiyat tafakkuri va ijtimoiy-ma'naviy hayotini boshqarishda shu vosita bo'lsagina farovon turmush yuzaga keladi degan qarash hukm surgan. "Qonunlar" kitobida Platon ma'naviy tarbiyaga katta e'tibor beradi hamda qonunchilikni axloqiy jihatdan mustahkamlash zarurati haqida so'zlaydi. Faylasuf bu asarida ma'naviy sifatlarni (fazilatlarni) tug'ma deb ta'kidlaydi. Tarbiya faqat azaldan insonga berilgan fazilatlarni shakllantiradi, yuzaga chiqaradi, xolos. Bordi-yu tarbiya noto'g'ri berilsa, u holda insondagi azaliy fazilatlar o'zgarishi yoki o'chishi mumkin»degan mazmunda fikr bildiradi.

Har ikki mutafakkirning qarashlarida kesishuv nuqtasi mavjud bo'lib, ijod qilish iste'dodi ilohiy ne'mat sifatida qaraladi. Bu, albatta, ijodkor shaxsidagi muhim jihatdir. Bu

o'ziga xos psixologik jarayon sifatida jahon psixologlari tomonidan o'rganilib kelinadi. Bunda uning asosiy uchta yo'nalishi belgilab olingan.

Ijodiy jarayonni hayot voqeligi, narsa va hodisalarni estetik qabul qilishda mantiq, tajriba, shuningdek, ularga nisbatan assotsiativ ijodiy munosabatni birinchi planga qo'yilishi. Bunda estetik qabul qilish va badiiy ifodalanish ratsion jarayoni bir butun kompleks sifatida tushuntiriladi. Psixolog olim L.S. Vygotskiy ta'biri bilan aytganda: "Daraxt rasmini ishlayotgan rassom uni butunligicha chizmaydi. Chunki har bir yaproqni alohida alohida chizishi ham mumkin emas. Umumlashtirib beradi – bir nechta alohida yaproq haqidagi tasavvurlarini bir joyga jamlaydi. Yozuvchi ham xuddi shunday, o'ziga kerak bo'lgan voqealar chizig'ini tanlab oladi. Ijodiy kuch bilan hayot materialini qayta ishlaydi, qayta quradi". Rus psixolog-tadqiqotchisi V. Samoxinning ta'kidlashiga qaraganda real voqealar tizimidan estetik shakllarni ijodiy qabul qilishning butun boshli tizim bo'lishi bu jarayondagi dinamika va "ijodiy faollik" bilan bog'liq. Amerikalik psixolog R. Arnxeym nemis geshtalt-psixologiya maktabi vakillari fikrlarini ushbu muammo doirasida umumlashtirgan olim shunday xulosani o'rtaga tashlaydi: "Ijodiy jarayonning estetik shakllanishiga doir masalalar haqida so'z yuritib, Arnxeym shuni alohida ta'kidlaydiki, ayni shakllarning yuzaga kelishi bevosita qabul qilish jarayoni bilan bog'liq. Bunda estetik shakllarni qabul qilish shunchaki kuzatuv emas, balki faol dinamik jarayon sifatida material (o'lchami, ko'rinishi, rangi) va inson miyasida sodir bo'layotgan psixofiziologik jarayonlar, shu ikki kuch o'rtasidagi faol munosabatlardan kelib chiqadi". Darhaqiqat, real hayot voqeligi, narsa va hodisalar bilan inson ong-shuuri o'rtasidagi munosabat, uni estetik qabul qilishga intilish har bir insonga xos. Ijodga aloqasi bo'lmagan har qanday oddiy inson ham ularga nisbatan estetik munosabatda bo'lishi, zavqlanishi, kulishi, yig'lashi, yoqlashi, rad etishi, yaxshi yoki yomon ko'rishi mumkin. Psixolog-olimning yuqoridagi xulosalari shu tomondan muhimki, ijodkor shaxsning bu jarayondagi munosabati favqulodda shiddat bilan rivojlanib boradi. Natijada, hamma qatori estetik munosabat ijodiy-estetik munosabatga aylanadi. Real voqelikdagi narsahodisalar muayyan ijodiy g'oya bilan birikib, ijodkor ongida estetik shakllar tizimini hosil qiladi. Natijada, san'at asari maydonga keladi. Masalaning ikkinchi yo'nalishdagi talqini ijodiy jarayonni g'ayrishiuriy, ong osti psixoanalitik jarayonlar bilan bog'lashda namoyon bo'ladi. So'nggi paytlarda o'zbek adabiyotshunoslari psixoanaliz ilmining asoschisi. Freyd ta'limotini chuqur o'rganib, badiiy ijodni yozuvchining ongi ostida kechadigan g'ayrishiuriy holatlar bilan bog'lab talqin eta boshladilar. Jumladan, adabiyotshunos U. Jo'raqulov "Psixoanaliz va badiiy ijod" nomli tadqiqotida bu haqda shunday fikrlarni bildiradi: "Psixoanaliz adabiyot yoki adabiy asar sub'ekti deyilganda ikki holatni diqqat markazida tutish lozim. Birinchi holatda adabiy asar muallifi ijodiy jarayonni (ilhom onlari)dagi murakkab ong osti oqimini o'zida muhrlagan vosita o'laroq namoyon bo'ladi. Bunda muallif ham, asar voqeligi ham shu holat hukmi, boshqaruvi ostida harakat qiladi. Ayni holatning badiiy asar uchun universal mohiyat kasb etishetmasligi ikki narsa bilan bog'liq: a) muallifdagi haqiqiy ijod jarayonining davomiyligi, iste'dod darajasi; b) asarning zamon nuqtai nazaridan maydonga kelish ko'lami, uning qaysi adabiy tur yoki janrda yozilganligi"[4;64-bet] . Ko'rinadiki, olim talqinicha Z.Freyd ta'limotining asosida ijod psixologiyasiga tayanish yotadi. U ijodiy kayfiyat va ijodkorning murakkab holatini noyob, har qanday odamda uchramaydigan hodisa deb hisoblaydi. Neofreydchilarning peshqadam vakili K.Yung Freyd ta'limotini yangicha talqinlar bilan

boyitadi. Z.Freyddan farqli ravishda "...inson ongi va ongsizlikka mansub bo'lgan masalalarni falsafa tarixi, she'riyat, diniy, madaniy yodgorliklar yordamida ko'rib chiqdi, ularni yangicha talqin qilishga harakat qildi"[5; 664-b]. Bu xatti-harakatlar ijod faoliyatiga xos nozik nuqtalarni tahlil qilishda Sharq falsafasiga hamohang ekanligini ko'rsatadi.

Haqiqatdan ham, Sharq dunyosi ijodni ilohiy mo'jiza deb tushunadi va tushuntiradi. Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va Boborahim Mashrab kabi mumtoz shoirlarimiz ijodida bu fikrlar ramz-majozlarga o'rab tasvirlangan. Alisher Navoiy ham o'zining "Xamsa"sidagi so'nggi doston "Saddi Iskandariy"da voqeiy tush tasvirini beradi. Tushida ustozlari Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy ruhlari uni olqishlab, oq fotiha berganlarini yozadi. "Boburnoma"da berilgan bir nechta ilohiy tush tasviri, Mashrab she'riyatidagi zamindan uzilish holatlari fikrimizga yaqqol dalildir. Sobiq sho'rolar davridagi qarashlarni istisno qilganda ijod ahli doimo adabiy hodisalar va ilhom jarayonlarini ilohiyot bilan bog'lab kelganlar. Bu xususiyatlar aynan shuning uchun bo'lsa kerak, Abdulla Qodiriy romanlari, Cho'lpon she'riyatida yaqqol sezilib turadi. Tadqiqot ob'ektidan biri bo'lgan yozuvchi N.Eshonqul bilan bo'lgan suhbatlarimizdan birida: "Asar yozishga undaydigan, uni hayotiy ehtiyojingga aylantiradigan kuch nimada deb o'ylaysiz?" degan savolimizga shunday javob berdilar: " - Ijod ilohiyatni, olam va odam uyg'unligini, yaxlitligini anglash va unga intilishdan tug'iladi. Bu anglash gohida og'riq, gohida shaydolik, gohida taqlid, intilish, sog'inish, qo'msash shaklida namoyon bo'ladi. Qay shaklda namoyon bo'lmasin, chinakam san'at asari, chinakam ijod namunasi insonni Yaratganga – olam va odam yaxlitligiga, odam va olam birlashgan va keyin ajrashgan nuqtaga boshlab boraveradi. Ijod yo'li – Yaratganni his etish va unga intilish, uning yo'liga mayoq yoqish yo'lidir. Ijod ilohiyatni botinan his qilish va o'zi his qilganlarni boshqalarga ham aytish ehtiyoji... Ilhom onlarisiz, zo'raki yozilgan narsalar odatda sun'iy va soxta chiqadi, Qodiriy bobo aytgandek, "olov" sezilmaydi. Asarga ichki uchqunni ijodkorga Xudo beradi deb o'ylayman. Agar o'sha ilohiy "olov" bo'lmasa, asar adabiy asarga aylana olmaydi..." Demak, ijodkor shaxsi va ijod jarayoni singari hodisalarni jo'ngina tushunish va tushuntirish mumkin emas. Bu hodisaga odatdagi realistik qarashlardan o'zgacharoq yondashish lozim. Psixolog olim A.Asmoilov "SHaxs psixologiyasi" kitobida shaxsning o'zligini namoyon etuvchi bir qancha xarakterli xususiyatlar mavjudligini ta'kidlaydi. Bulardan birinchisi, shaxsning ko'p qirrali fenomen sifatida namoyon bo'lishidir. Olim bunga asos qilib borliqni anglash, o'z o'zini boshqarish va boshqa bir qator psixologik jihatlarni ko'rsatadi. Olim e'tibor qaratgan yana bir jihat shaxsning individual xususiyatlaridir. Ya'ni shaxsning atrofini o'rab turgan muhit bilan munosabatlarida faoliyatning motiv sifatida paydo bo'lishi, jamiyatdagi ijtimoiy roli, jismoniy holati, ideali, milliy o'ziga xosligi, dunyoqarashi, ma'naviy olami, o'zini anglash va baholashga bo'lgan salohiyati, ijodkorlik faoliyati, intellekt sifatida namoyon bo'lishi, individualligi, baholashdagi ijobiylik va salbiylik tushunchalarining yaxlit "men" sifatida namoyon bo'lishi shaxs tushunchasining muhim belgilari hisoblanadi. Psixolog olimlar P.I. Ivanov va M.E. Zufarovalarning "Umumiy psixologiya" kitobida shaxs tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: "Shaxs deb aniq bir kishini aytamiz. Har bir kishi jamiyat a'zosi bo'lib, tarixan tarkib topgan muayyan ijtimoiy munosabatlar sharoitida yashaydi va ishlaydi. Odamning shaxs sifatidagi asosiy belgisi uning ijtimoiyligi, shu bilan birga psixik hayotning yuksak shakli bo'lgan ongli va kishilarning o'zaro muloqat qilish vosita bo'lgan tildir. Insonning kundalik hayotida o'zaro

munosabatlar muhimdir. Odam ongning yuksak belgisi – uning o'zini anglashidir, odamning o'zini anglashi ham shaxsning muhim belgisidir". Mualliflar bu o'rinda shaxsning o'zini anglashi deganda, asosan, uning ijtimoiy faoliyatini, shuningdek, ayrim ruhiy jarayonlarini hamda "men"ligini namoyon qiluvchi ba'zi tomonlarga e'tibor qaratadi. Bunda uning kasb-koriga, dunyoqarashi va jamiyatda tutgan o'rniga qarab o'zini boshqarishiga urg'u qaratiladi. Darhaqiqat, ijodkor ham hamma qatori bir odam. Uning turmush tarzi, ijtimoiy hayoti, o'zgalar bilan muloqotmunosabatlari boshqalarnikidan farq qilmaydi. Ular ijod jarayonida, so'z bilan ishlayotgan pallalarda oddiy odamlarga o'xshamaydilar. SHu ma'noda, yozuvchi ijodiy faoliyati, uni ijodga undaydigan omillar, faoliyatining qirralari kabi masalalar ham muhim ahamiyatga egadir. Mashhur polyak yozuvchisi, tanqidchi Yan Parondovskiy o'zining "So'z kimyosi" nomli asarida yozuvchilik faoliyatining bir-biridan farqlanuvchi ikki qirrasini ko'rsatadi. "Biror g'oyadan ilhom oladigan yozuvchi bilan yozuvchilik instinktining undovi bilan ijod qiladigan yozuvchi o'rtasida tafovut bor. G'oyadan ilhom oladigan yozuvchi bir necha xil faoliyat qurollari orasidan qalamni tanlab oladi va bordi-yu, qalamni tanlash uning uchun birdan-bir yagona imkoniyat bo'lgan bo'lsa, oldiga qo'ygan vazifasini ado etishi bilanoq qalamni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yadi. Ikkinchi toifa yozuvchi uchun esa hayotdan ko'z yumgandan keyingina ijod tamom bo'ladi. Petrarka aytganidek: "Scribendi vivendique mihi unus finis erit" ("Men yashashdan to'xtasamgina yozishni bas qilaman").[6;242-b] Yan Parondovskiyning fikriga qo'shilish mumkin. Tayyor g'oyalarga asoslanib yaratilgan asarda ijodkorning aqli, tafakkuri etakchilik qiladi. Yozuvchi asarini tayyor g'oyaga moslashtiradi, bunda ilhom, intuitiv kashflardan ko'ra ijodkorning fikrlash tarzi ustunlik qiladi. Bu xildagi asarlarni yozishda ham iste'dod zarur, biroq bunda iste'dod tafakkurga bo'ysundiriladi. Yozuvchi e'tirof etgan ikkinchi yo'nalish, ya'ni ichki "ovoz" - intuitsiya undovi bilan, tuyg'ular, kechinmalar fonida yaratilgan asarlar umrboqiylikka daxldor asarlar hisoblanadi. Italyan adabiyotshunosi Umberto Eko o'zining "Joys poetikasi" asarida adib ijodi va estetik konsepsiyalarini uning biografiyasi bilan bog'lab tadqiq etadi. Tadqiqotda J.Joysning o'smirlik paytlaridayoq Foma Akvinskiy falsafiy dunyoqarashiga ruhan yaqinlashuvi, 16 yoshida Ibsen ijodidagi san'at va axloq mushtarakligini anglagani, Jordano Bruno ijodidagi chuqur dramatzmdan ruhiy qiynoqlar va san'atning hayotni o'zgartiruvchi kuch ekanini his etgani aytiladi. Yozuvchi hayotni estetik ideal bilan simvolik butunlikda tasvirlash mahoratining shu tarzda shakllanganiga urg'u beradi. Bundan ma'lum bo'ladiki, Joys ijodining asosida ijod psixologiyasiga xos murakkab jarayonlar qatorida biografik omillar, shaxsiy did va bilim ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shoir Abdulla Sher san'atkor shaxsini o'ziga xos alohida ruhiy tip sifatida qayd etib, u ijod qilayotgan paytda qandaydir noratsional, aql vositasida tushunib bo'lmaydigan holatga, o'zini o'zi emas, boshqa nimadir boshqaradigan jarayonga kiritadi, o'zini zamon va makonning hukmdoridek his etadi, deb baholaydi. Bu holatni zikrga berilgan darveshning "hol" maqomigagina o'xshatish mumkin der ekan, ilhom va ijodiy jarayonning ilohiyotga daxldorligini e'tirof etadi. Bizningcha, adabiy shaxsiyat va uning ijodga bo'lgan munosabati xuddi oshiqning muhabbatga bo'lgan munosabatiga o'xshaydi. Oshiq dunyodagi barcha voqea-hodisalar, an'ana va favqulodda holatlarni muhabbat mezonini bilan o'lchaganidek, haqiqiy ijodkor ham hamma narsaga ijod manbai sifatida qarashiga haqiqiy ijodkor shaxsiyatini o'zida namoyon etadi.

A.Veselovskiyning quyidagi fikrlari buni to'la tasdiqlaydi: "Badiiylik doirasida intim tuyg'ular va kayfiyatlarni tasvir etish jarayoni inson individualligi, shaxs ibtidosiga jiddiy diqqat qaratish lozimligini ko'rsatdi. Bu olamda individual tuyg'u sevgi-muhabbat, hatto o'ta individual tuyg'u ham shudir". Tarixiy faktlarga qaraganda, shaxs tushunchasining shakllanishi ma'lum odamlar emas, butun boshli davrlar evrilishiga olib kelishi mumkin. Erk va ozodlikka intilish orzusi dastlab shaxs ko'nglida, so'ng esa uning faoliyati va ijodida, bundan o'tib jamiyat hayotida namoyon bo'ladi. Olim N.Konradning yozishicha: "Gumanizm, bizning taxminlarimizga ko'ra, uyg'onish davrining ilk mujdalaridan darak beradi. Renessans gumanizmi asosini insonning o'z shaxsiyati qimmatiga ishonchi tashkil etdi". Demak, fikr erkin hayotga, erkin bo'lgan ichki ehtiyoj shaxs fenomenining maydonga kelishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shunday qarashlar ta'sirida yozilgan she'rlar, qissa va romanlar shaxs konsepsiyasini ifodalovchi obrazlarga boy bo'ladi. Natijada yagona shaxs ongida tug'ilgan erk va ozodlik, mustaqil inson g'oyasi ijtimoiylashadi. Davrlar, avlodlar fikriga ta'sir qilib, ijtimoiy turmush rivojini ta'minlaydi. Shu jumladan, keyingi davr o'zbek adabiyotshunosligida ham ijodkor shaxsi talqiniga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu hol, ayniqsa, yozuvchi ijodini biografik yondashuv asosida tadqiq etuvchi ilmiy izlanishlarda ko'proq kuzatiladi. A.Qodiriy, A.Cho'lpon, A.Fitrat kabi jadid adabiyoti namoyandalari ijodiga oid biografik talqinlarda, shuningdek, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, U.Hamdami, A.Yo'ldoshev kabi voqelikni yangicha idrok etishga harakat qilayotgan zamonaviy ijodkorlar asarlari talqinida shaxs masalasi oldingi planni egallayotganiga guvoh bo'lamiz. O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Karimov, Q.Yo'ldoshev, Q.Qahramonov, D.Quronov, A.Ulug'ov, B.Karimov, U.Jo'raqulov, I.Yoqubov, U.Hamdami kabi olimlarning tadqiqotlarida badiiy asarni yozuvchi shaxsiyati bilan bog'lab talqin qilishga katta e'tibor qaratilgan. Aynan shu holatlar ijodkorning ijodiy laboratoriyasiga kirish, uning ijod jarayonidagi ruhiy holatini, ijod psixologiyasini belgilash imkoniyatini beradi. Xususan, B.Karimov badiiy ijod mohiyatini, ijodkor psixologiyasini, badiiy asar ildizlarini ochishda biografik metodning o'rni katta ekanini, har qanday yozuvchi asarlarida, eng avvalo o'z qalbini, ma'naviy dunyosini aks ettirishini alohida qayd etadi[7;166-174-b]. Haqiqatan ham, badiiy asar mutolaasi jarayonida uning satrlari qa'tida biz ijodkor nigohi, qalb kechinmalari, fikr dunyosi, voqelikka estetik munosabatini, bir so'z bilan aytganda, ijodkor "men"ini anglaymiz. Yozuvchi X.Do'stmuhammad ta'kidlaganidek: "Har qanday badiiy tafakkur ijodkor yaratgan obrazda moddiylashadi, ya'ni konkretlashadi. Badiiy obraz yozuvchi badiiy tafakkurining muayyan davridagi shaklshamoyili"dir. Demak, badiiy asar talqinida, ijod jarayonining ilmiynazariy asoslarini belgilashda yozuvchi shaxsiyati, uning adabiyestetik qarashlari muhim ahamiyatga ega. Har bir ijodkorning badiiy ijod, ijod jarayoni haqida o'zining muayyan kuzatishlari-yu xulosalari mavjud. Ularning ba'zilari faoliyatida badiiy va ilmiy-tanqidiy ijod parallelligi kuzatiladi. Evropa adabiyotidagi aksariyat yozuvchilar, rus adabiyotidan L.Tolstoy, F.Dostoevskiy, I.Turgenev, N.Dobrolyubov, N.Chernishevskiy, M.Bulgakov, M.Sholoxov, o'zbek adabiyotidan A.Fitrat, Oybek, G'.G'ulom, A.Muxtor, P.Qodirov, X.Do'stmuhammad ijodiy faoliyatida bu jihat yaqqol ko'rinadi. Ular qatorida O'tkir Hoshimov ijodida bunday an'analar izchil davom ettirilgani e'tiborga molikdir. Umuman, ijod bor joyda ijodkorning adabiyot, badiiy ijod haqidagi o'z ijodiy tajribalaridan chiqarilgan xulosalari bo'ladi. Bu xulosalar uning adabiy-estetik qarashlarini belgilash ijodiy prinsiplarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, har bir davr ijod qilgan

ijodkorlarining adabiy-estetik qarashlari o'sha davr adabiybadiiy tafakkurini belgilashda etakchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ayni masalalarning qisqacha tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, taniqli adabiyotshunos olimlar H. Boltaboev va M. Mahmudovlar tomonidan tayyorlanib, chop etilgan "Adabiy-estetik tafakkur tarixi" kitobini yodga olish zarur bo'ladi. Ushbu tadqiqotda eng qadimgi, o'rta asrlar, uyg'onish davri (IV, XVI) G'arb va Sharq adabiy-estetik qarashlaridagi (xususan qadimgi Misr, Bobil, Isroil, Xitoy, hind, yunon, rim va Markaziy Osiyo, Eron) etakchi yo'nalishlar, har bir davr adabiyestetik tafakkurning badiiy ijodga ta'siri masalalari o'rganilib, asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan. Bunday holatning maydonga kelishi tasodif emas. Masalan, XX asr va XXI asrning dastlabki choragi jahon adabiy-estetik tafakkurida yangi bir bosqich sifatida tarixga muhrlandi. Jahonda ikki bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan jamiyatning paydo bo'lishi, ikki marta jahon urushini boshdan kechirish, ilm-fan, texnikaning mislsiz taraqqiyoti, katta sakrashlarni boshdan kechirgan rivojlanish, tanazzullar har xil po'rtanalarni vujudga keltirdi. Bunday o'zgarishlar silsilasi inson ongu tafakkurida, ruhiyatida, ma'naviy olamida o'zgarishlar, yangilanishlar, evrilishlar, inqirozlar bo'lishiga yo'l ochdi. Natijada, yaratilayotgan badiiy asarlarda ham xilma-xil yo'nalish va oqimlar vujudga kela boshladi. Ular o'z mohiyat e'tibori bilan turli xil g'oyaviy motivlarni ifodalashga xizmat qildi. Mustaqillik yillariga kelib, sho'ro mafkurasiga asoslangan ijodiy metoddan voz kechilib, muayyan nazariy qarashlar inkor etilgach, adabiyotimiz va adabiy tafakkurimiz jahonga qarab evrildi. Natijada ham adabiyotshunoslik ilmida, ham adabiy-estetik tafakkurda yangilanishlar ro'y berdi.

Shunday qilib, ijodkor shaxs va estetik pozitsiya mutanosibligi ijodiy jarayonning muhim va birlamchi omili hisoblanishi ma'lum bo'ladiki, bunda har bir asar uning muallifining olam va odam haqidagi tafakkurida umr bo'yi shakllanib kelgan o'z falsafasini g'oyaviy-estetik qarashlari asosida ifodalashi kuzatiladi. Bunda muallif shaxsi va uning estetik pozitsiyasining mutanosibligi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shu jihatga ko'ra badiiy asarning saviyasi, badiiy va falsafiy ahamiyati mustahkamligi belgilanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ю. В. Мельникова история и миф в творческом наследии а. Ф. Лосева
2. Фалсафа энциклопедик луғат. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010.
3. Йўлдошев С. ва бошқалар. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. – Тошкент: Шарқ, 2003.
4. Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006.
5. Ғарб фалсафаси. (Тузувчи Қ. Назаров) – Тошкент: Шарқ, 2004.
6. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (Шарафиддинов О. таржималари) . – Тошкент: Маънавият. 2010
7. Каримов Б. Руҳият алифбоси.– Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 05-avgust

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.